

## TARBIYALANUVCHILARDA AXLOQIY-ESTETIK SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISHNING SHART-SHAROITLARI.

*Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi*

*1-bosqich magistranti Xoshimova E'zozxon Xayotjon qizi.*

*ezozxon.uzaqova1991@gmail.com*

### **Annotatsiya**

Maqolada tarbiyalanuvchilarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish jarayonida pedagogik sharoitlarning ahamiyati va ularni muvaffaqiyatli tashkil etish masalalari o'rganiladi. Axloqiy va estetik tarbiyaning nazariy asoslari, uning amaliy jihatlari, ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi. Yosh avlodning ma'naviy-estetik kamolotini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar, san'at va madaniyat vositalarining o'rni alohida ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Axloqiy sifatlar, estetik tarbiya, pedagogik sharoitlar, madaniy muhit, badiiy ta'lim, shaxsiy namuna, ma'naviy tarbiya.

### **Аннотация**

В статье рассматриваются вопросы значимости педагогических условий и успешной организации процесса формирования нравственно-эстетических качеств у учащихся. Анализируются теоретические основы нравственного и эстетического воспитания, его практические аспекты и методы повышения эффективности образовательного процесса. Особое внимание уделяется роли современных технологий, искусства и культуры в обеспечении духовно-эстетического развития молодого поколения.

**Ключевые слова:** Нравственные качества, эстетическое воспитание, педагогические условия, культурная среда, художественное образование, личный пример, духовное воспитание.

### **Annotation**

The article explores the significance of pedagogical conditions and the successful organization of the process of developing moral and aesthetic qualities in students. It analyzes the theoretical foundations of moral and aesthetic education, its practical aspects, and methods for increasing the efficiency of the educational process. Special attention is paid to the role of modern technologies, art, and culture in ensuring the spiritual and aesthetic development of the younger generation.

**Keywords :** Moral qualities, aesthetic education, pedagogical conditions, cultural environment, artistic education, personal example, spiritual upbringing.

### **Kirish**

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri ma'naviy yetuk, axloqiy va estetik jihatdan rivojlangan shaxslarni tarbiyalashdir. Bu jarayon jamiyatning barcha sohalarida muvaffaqiyatli rivojlanish uchun muhim asos hisoblanadi. Axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish, yosh avlodning nafaqat individual kamolotiga, balki ularning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada ushbu jarayonning pedagogik shart-sharoitlari va ularni tashkil etishning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi.

Axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishning asoslari. Axloqiy va estetik sifatlarni shaxsning ma'naviy-ruhiy dunyosini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning odoq-axloq me'yorlariga rioya qilishi, o'zini boshqalar bilan uyg'unlashtirishi va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiya esa insonning go'zallikni his etish, uni qadrlash va hayotida estetik jihatdan uyg'un muhit yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu ikki sifatning uyg'unlashuvi shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Axloqiy-estetik tarbiyaning nazariy asoslari qadimiy falsafa, pedagogika va san'atga asoslangan. Sharq mutafakkirlari Al-Farobiy, Navoiy, Bedil va boshqalarning asarlarida inson ma'naviyati va tarbiyasining axloqiy-estetik jihatlari keng yoritilgan. Masalan, Al-Farobiy jamiyatda "fazilatli shahar"ni yaratish uchun har bir fuqaroning axloqiy yetukligi muhim ekanini ta'kidlagan.

Axloqiy-estetik tarbiya nafaqat o'tgan asrlarda balki, nungungi kunimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda globallashtirish jarayonida yoshlar o'z madaniy ildizlari va milliy qadriyatlariga hurmatni saqlab qolishi muhim. Shu bilan birga, ularning dunyoqarashini kengaytirish, zamonaviy dunyo san'ati va madaniyati bilan tanishtirish zarur. Axloqiy-estetik tarbiya ushbu maqsadlarni amalga oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy muammolarni hal etishda estetik va axloqiy tarbiyaning o'rnini katta. Ma'naviy yetuk shaxs jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki u yuqori mas'uliyat hissi, boshqalar bilan hamkorlik qila olish qobiliyati va madaniy qadriyatlarni himoya qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Pedagogik shart-sharoitlar va ularning ahamiyati juda muhim o'rin egallaydi. Axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

Madaniy va estetik muhitni yaratish bu tarbiyachilar va MTT rahbarining ijodkorligi va o'z ishiga sadoqatiga, bundan tashqari bolalarga mehr bera olishiga bog'liqdir. Tarbiyalanuvchilarning o'qish va tarbiya oladigan joylari estetik jihatdan jozibador bo'lishi kerak. Sinfxonalarda badiiy asarlar, madaniy merosni aks ettiruvchi tasvirlar va boshqa estetik vositalar joylashtirilishi muhim.

San'at va madaniyat vositalaridan foydalanishning ham ahamiyati katta. Musiqa, adabiyot, tasviriy san'at va teatr vositalaridan foydalanish

tarbiyalanuvchilarda badiiy-estetik didni rivojlantiradi. Shu orqali ular o'z his-tuyg'ularini ifodalash va hayotda estetik go'zallikni topishni o'rganadilar.

Bolalarni axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash uchun faqatgina gapirib tushuntirib tarbiya berishning o'zigina yetarli emas. Kamenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida bolalar ta'limining tabiatga mos kelishini ta'kidlab, ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik tamoyilini ilgari surgan. Uning fikricha, bola ko'rish, eshitish, amaliy harakat qilish orqali o'zlashtirishga moyil bo'ladi. U "O'qitish jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bola barcha narsani o'z ko'zi bilan ko'rib, qo'li bilan ushlab, tajriba orqali o'rganishi kerak" degan fikrni ilgari suradi. Aynan shu so'zlarga asosan bolalar shaxsiy namuna ko'rsatish orqali go'zal xulqli qilib tarbiyalash mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar shaxsiy xulq-atvorlari bilan bolalarga namuna bo'lishi zarur. Axloqiy fazilatlarni amalda namoyish etish yoshlarning o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Pedagogik innovatsiyalarni qo'llash XXI asr talabi hisoblanadi. Shu boisdan bugungi kunimizda bolalarga ta'lim tarbiya berishda ham texnologiyalarning hizmati cheksizdir. Multimedia texnologiyalari, interaktiv ta'lim vositalari va onlayn platformalar axloqiy-estetik tarbiyani samarali amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, virtual san'at ko'rgazmalari yoki musiqa darslarini onlayn o'tkazish yoshlarni san'at bilan tanishtirishda qulay vosita hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. Amaliy usullar va yondashuvlar. O'yin va ijodiy mashg'ulotlar. Tarbiyalanuvchilar uchun o'yin shaklidagi faoliyatlar tashkil qilish axloqiy-estetik tarbiyada samarali usuldir. Masalan, rolli o'yinlar orqali ular ijtimoiy rollarni tushunishni o'rganadi va o'z xulq-atvorini baholaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar uchun qiziq bo'lgan qo'g'irchoq teatrlari tashkil etish va yurtimizdagi go'zal bayramlarda madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali bolalarda ham milliy qadriyatlarimizni o'rganishiga zamin yaratishimiz, bundan tashqari bolalarning quvonchiga quvonch qo'shishimiz mumkin. Tarbiyalanuvchilarni teatr, ko'rgazma va konsertlarga jalb qilish ularning estetik dunyoqarashini kengaytiradi. Ushbu tadbirlar ularni milliy va jahon madaniyati bilan tanishtirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta va tayyorlov guruhlarida bolalarga adabiyotimizning buyuk shaxslarning asarlaridan qisqacha o'qib o'rgatish orqali tariximizning buyuk shaxslarini tanitish mumkin. Adabiyot va san'at darslarida muayyan asarlarni tahlil qilish tarbiyalanuvchilarda axloqiy masalalar haqida fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, Navoiyning "Xamsa" asaridagi axloqiy qahramonlar tahlili orqali tarbiyalanuvchilar ma'naviy fazilatlarni o'zlashtiradi. Bunda tarbiyachi bolalar yoshiga mos tarzda tushuncha beradi. Masalan "Hayrat-ul abror" asaridagi "Sher ila durroj" nomli parchadan o'zbek rejissyorlari judayam chiroyli

tarzda multfilm ham yaratganlar. Bunda bolalar yolg'on gapirishning salbiy oqibatlari haqida o'zlariga xulosa chiqaradilar.

Estetik muammolarni muhokama qilish. Munozaralar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va estetik didni rivojlantiradi. Masalan, "Go'zallik deganda nimani tushunasz" mavzusidagi munozara bolalarni estetik qadriyatlarni anglashga undaydi. Axloqiy-estetik tarbiyaning natijalari. Axloqiy-estetik tarbiya shaxsning quyidagi sifatlarini rivojlantiradi: Ma'naviy yetuklik: Shaxsda ma'naviy qadriyatlarni anglash va ularga rioya qilish odati shakllanadi. Ijodkorlik: Tarbiyalanuvchilar o'z fikrlarini badiiy va ijodiy ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijtimoiy moslashuvchanlik: Axloqiy-estetik tarbiya shaxsni ijtimoiy muhitga moslashishga tayyorlaydi.

### **Xulosa**

Axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarni nafaqat madaniy, balki ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik shart-sharoitlarni to'g'ri tashkil etish, madaniy muhitni yaratish, san'at vositalaridan foydalanish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yosh avlodning axloqiy va estetik rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu masalalarning chuqur o'rganilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi kelajak avlodning ma'naviy barkamolligini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'aniyev A. Estetik tarbiya nazariyalari. Toshkent: Fan, 2018.
2. Jalolov J. Pedagogika asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
4. Musurmonova O. Shaxs ma'naviyati va tarbiya. Toshkent: O'qituvchi, 2017.
5. Navoiy A. Lison ut-tayr. Toshkent: Sharq, 1992.
6. G'ofurov F. Sharq falsafasi va pedagogikasi. Toshkent: Fan, 2009.
7. Vygotskiy L.S. San'atning psixologik asoslari. Moskva: Pedagogika, 1991.
8. Dewey J. Art as Experience. New York: Minton, Balch & Company, 1934.
9. Komenskiy Y.A. Katta didaktika. Moskva: Prosveshcheniye, 1984.
10. Abdullayev A. Ta'lim va tarbiya nazariyasi. Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
11. Montessori M. The Absorbent Mind. New York: Holt, Rinehart, and Winston, 1949.
12. Aristotel. Nikomax axloqi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
13. Bedil A. Irfoniy g'azallar. Toshkent: Fan, 1997.
14. Abduqodiriy A. Ma'naviyat va tarbiya muammolari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.